

**Ўzbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Toshkent kimyo texnologiya instituti**

**«Mahsulot sifati menejmenti» kafedrası**

**SERTIFIKATLASHTIRISH IDORALARI VA SINOV  
LABORATORIYALARINI AKKREDITLASH JARAYONLARI  
Fanidan  
AMALIY MASHG'ULOTLAR O'TISH BO'YICHA O'QUV QO'LLANMA**

**Toshkent-2017y**

Fanning ishchi o'quv dasturi namunaviy o'quv dasturi va ishchi o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar t.f.n., dots. YUsupov E.D., k.f.d., prof. Hamroqulov G'.

Taqrizchi: t.f.d. Karimov A.O'.

Fanning ishchi o'quv dasturi «Mahsulot sifati menedjmenti» kafedrasining 2013 yil «\_\_\_» avgustdagi \_\_\_\_\_ - sonli majlisida ko'rib chikilib, fakul'tet Ilmiy – uslubiy Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

**«Mahsulot sifati menedjmenti»**

**kafedrasi mudiri**

**dots. Alimbayev S.A.**

Fanning ishchi o'quv dasturi «Menejment va kasb ta'lim» fakul'teti Ilmiy – uslubiy Kengashining 2013yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli majlisida tasdiqlandi.

**M va KT fakul'teti**

**Ilmiy – uslubiy kengashi raisi**

**prof. Xamraqulov G'.**

**Amaliy mashg'ulot №1**  
**Kursni maqsad va vazifalari.**  
**Uzbekiston Respublikasi Akkreditlash tizimi. Atama va ta'riflar.**

Akkreditlashni asosiy maqsadlari:

- mahalliy mahsulot, xizmatlar yoki jarayonlarni xavfsizligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- xalqaro bitimlarda texnikaviy tusiqlarni bartaraf qilish;
- sinov laboratoriyalari, kalibrlash va qiyoslash laboratoriyalari, sertifikatlashtirish va nazorat idoralari, metrologik xizmatlar va standartlashtirish buyicha xizmatlarni texnikaviy layoqatligini oshirish va faoliyati natijalarini xalqaro tan olinishini ta'minlash

Akkreditlashni asosiy vazifasi bulib tashkilotlar va jismoniy shaxslar faoliyatini me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq qonuniy huquqqa egaligini tasdiqlash xisoblanadi.

Akkreditlash buyicha faoliyatni tizim doirasida quyidagi sub'ektlar amalga oshiradi:

- Akkreditlash buyicha Milliy idora, uning funksiyalarini «Uzstandart» agentligi bajaradi;
- me'yoriy ta'minot va akkreditlash protseduralari buyicha ilmiy – uslubiy markaz, uning fuksiyalarini SMSITI bajaradi;
- «Uzstandart» agentligini topshirig'iga muvofiq boshqa davlat idoralari.

Tizimda akkreditlash ob'ektlari:

- sinov laboratoriyalari;
- kalibrlash va boshqa laboratoriyalar;
- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish buyicha idoralar;
- sifat tizimlarini sertifikatlashtirish buyicha idoralar;
- nazorat idoralari;
- ekspert – auditorlar.

**Akkreditlash** – mahsulot va xizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va muvofiqligini tasdiqlash buyicha aniq vazifalarni bajarish uchun vakolatlarini rasmiy tasdiqlash.

**Akkreditlovchi idora** - mahsulot va xizmatlar, xodimlar va sifat tizimlarini belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va muvofiqligini tasdiqlash buyicha faoliyatni amalga oshirish uchun rasmiy vakolatlarni beruvchi davlat boshqaruv idorasi.

**Akkreditlash mezonlari** – akkreditlashga talabgor javob berishi kerak bulgan talablar yig‘indisi.

**Akkreditlash sohasi** – muvofiqlikni tasdiqlash buyicha ma’lum faoliyat sohasidagi, bajarishga murojaat qilingan va (yoki) akkreditatsiya berilgan aniq ishlar.

## **Amaliy mashg‘ulot №2**

### **O‘zbekiston Respublikasi akkreditlash idorasi. Akkreditatsiya tizimi asos buluvchi me‘yoriy hujjatlari.**

**Akkreditlash idorasiga talablar. Uzbekiston Respublikasi akkreditlash idorasiga talablar. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari, sinov (ulchov) laboratoriyalarini akkreditatsiyadan utkazish tartibi. O‘z DSt 16.10:2009, O‘z DSt ISO/IEC 17021:2009, O‘z DSt ISO/IEC 17025:2005 va boshqalar.**

Akkreditlash buyicha idora:

- ma’lum yuridik maqomga ega bulishi kerak;
- moliyaviy turg‘unlik va Tizim faoliyat olib borishi uchun vositalarga ega bulishi kerak;
- akkreditlash buyicha faoliyatda ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatlarini ximoya qilish uchun huquq va javobgarlikka ega bulishi kerak;
- faoliyati uchun zarur bulgan xonalar, texnikaviy va boshqa vositalarga ega bulishi kerak;
- Tizimni muvafaqqiyatli boshqarishga imkon beruvchi tashkiliy tuzilma va sifat boshqarish tizimini boshqa elementlariga ega bulishi kerak;
- Tizimni takomillashtirish uchun akkreditlash buyicha boshqa idoralar bilan axborot almashinishga tayyor bulishi kerak.

Akkreditlash buyicha idora:

- u tomonidan boshqalarga vakolat berilgan xizmatlarni;
- sertifikatlashtirish buyicha protseduralarni ishlab chiqish va joriy qilish buyicha xizmatlarni taklif qilmasligi yoki kursatmasligi kerak

Akkreditlash buyicha idora:

- rahbarga;
- shtatdagi xodimlarga;
- tashkiliy tuzilmaga;
- mustaqil ekspertlarni jalb qilish imkoniyatiga;

- ekspertlar layoqatligini baholash buyicha tegishli protseduraga;
- akkreditlash buyicha ekspertlar buyicha yozuvlarga ega bulishi kerak.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari, sinov (ulchov) laboratoriyalarini akkreditatsiyadan utkazish tartibi  
(UzR Adliya vazirligi tomonidan 17.07.2006 y. 1596 – son bilan ruyxatga olingan)

O'z DSt 16.0:2006 Uzbekiston Resublikasi Akkreditlash tizimi. Asosiy qoidalar  
O'z DSt 16.10:2009 Uzbekiston Resublikasi Akkreditlash tizimi. Sertifikatlashtirish idorasiga quyiladigan umumiy talablar  
O'z DSt ISO/IEC 17021:2009 Muvofiklikni baxolash. Menejment tizimlarining auditi va sertifikatlashtirishni amalga oshiradigan vdoralarga kuyiladigan talablar  
O'z DSt ISO/IEC 17025:2007 Sinov va kalibrlash laboratoriyalari layoqatligiga umumiy talablar

O'z DSt 16.2:1999 (EN 45013-89) UzR Akkreditlash tizimi. Xodimlarni sertifikatlashtirish buyicha idoraga talablar  
O'z DSt 16.3:2001 YUridik shaxslarni standart namunalarni tayyorlash, shahodatlash va sotish huquqiga akkreditlash. Tashkillashtirish va utkazish tartibi  
O'z DSt 16.5:2001 UzR Akkreditlash tizimi. YUridik va jismoniy shaxslarni ulchashlarni bajarish uslublarini shahodatlash va hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish huquqiga akkreditlash. Tashkillashtirish va utkazish tartibi

O'zDSt 16.6:2003 UzR Akkreditlash tizimi. YUridik shaxslarni ulchashlarni bajarish uslublarini tashkillashtirish va nazorat qilish huquqiga akkreditlash  
O'z DSt ISO/IEC 17020:2009 Turli xil nazorat qiluvchi idoralarning ishlash mezonlari  
O'z DSt 16.8:2004 UzR Akkreditlash tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarini shahodatlash. Umumiy talablar va utkazish tartibi  
O'z DSt 16.9:2006 UzR Akkreditlash tizimi. UzR ekoanalitik laboratoriyalarni shahodatlash. Laboratoriyani texnikaviy layoqatini baholashni utkazish tartibi.

**Amaliy mashg'ulot №3 Sertifikatlashtirish idorasiga talablar  
(O'z DSt 16.10:2009)**

**Asosiy qoidalar. Tashkilotga talablar. Jarayonga talablar. Subpudrat buyicha ishlar**

Ushbu standart ISO/IEC Rahbariy xujjati 65:1996 «Mahsulotni sertifikatlashtirish buyicha idoralarga umumiy talablar» matidan iborat.

Standart bulimlari matniga Uzbekiston huquqiy talablari va iqtisodiyotini aniq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda milliy izohlar va qushimcha ma'lumotlar qushilgan.

Ushbu standart, mahsulotni sertifikatlashtirish tizimida faoliyat olib borayotgan uchunchi tomon, agarda u layoqatli va ishonchli deb tan olinishini istasa, javob berishi kerak bulgan talablarni belgilaydi.

**Umumiy talablar**

- SI siyosati va protseduralari diskriminatsiyasiz va teng huquqlilik asosida amalga oshirilishi kerak.
- protseduralarni qullanilishi sertifikatlashtirishga talabgorlarga qiyinchilik tugdirmasligi yoki tusqinlik qilmasligi kerak.
- SI akkreditlash sohasiga kiritilgan xizmatlarni kursatishi va barcha talabgorlarga yul ochilishi kerak.
- talabgor mahsulotini baholash mezonlari standartlarda belgilangan mezonlarga muvofiq bulishi kerak.
- sertifikatlashtirishga nisbatan talablar, baholash va qarorlarni SI sertifikatlashtirishda kuruladigan aniq sohaga nisbatan masalalar bilan cheklashi kerak.

**Tashkilotga talablar**

SI tashkiliy tuzilmasiga uning faoliyatiga ishonchni ta'minlashi kerak.

SI:

a) xolis bulishi;

v) sertifikatni berish, amal qilishini tasdiqlash, tuxtatib quyish va bekor qilish buyicha uz qarorlariga javob berishi;

s) quyidagilar uchun rahbariyatni (bulinma, guruh yoki shaxs) tayinlashi:

- sinov, nazorat, baholash va sertifikatlashtirishni amalga oshirish;
- SI faoliyatini belgilovchi siyosatni shakllantirish;
- sertifikatlashtirish buyicha qaror qabul qilish;
- uz siyosatini yurgazilishi ustidan nazoratni olib borish;
- SI moliyaviy masalalari ustidan nazoratni olib borish;

- SI ma'lum bir faoliyat turlarini amalga oshirish uchun huquqlarni bulinmalar yoki alohida shaxslarga berish.

d) u yuridik shaxs ekanligini tasdiqlovchi xujjatlarga ega bulishi;  
e) xolislikni ta'minlaydigan xujjatlashirilgan tashkiliy tuzilmaga ega bulishi;  
f) sertifikatlashtirish buyicha har bir qarorni, baholashda ishtirok etmagan shaxs qabul qilishi;  
g) akkreditlash sohasi buyicha faoliyati bilan bog'liq huquq va majburiyatlarga ega bulishi;

h) amalga oshirilayotgan operatsiyalar va/yoki faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlovchi mexanizmlarga ega bulishi;  
i) moliyaviy holati turg'un bulishi va sertifikatlashtirish uchun resurslarga ega bulishi;  
j) tegishli layoqatlilikka ega xodimlarga ega bulishi yoki jalb qilishi;  
k) sifat tizimiga ega bulishi;

l) sertifikatlashtirish va SI shug'ullanadigan boshqa faoliyatni cheklovchi siyosat va protseduralarga ega bulishi;

m) rahbariyat va xodimlarni istalga tijorat, moliyaviy va sertifikatlashtirish jarayoniga ta'sir kursatuvchi boshqa bosimlardan mustaqilligini ta'minlashi;

o) sertifikatlashirishda konfidensiallik, ob'ektivlik va xolislikni ta'minlashi va:  
1) sertifikatlashtirayotgan mahsulotini etkazib bermasligi yoki loyihalashtirmasligi,  
2) talabnoma topshirilgan sertifikatlashtirish uchun tusiqliq bulgan masalalar buyicha maslahatlar bermasligi yoki maslahat xizmatlari kursatmasligi,

3) konfidensiallikni buzuvchi, ob'ektivlilikka yoki sertifikatlashtirishni amalga oshirish va qaror qabul qilish jarayoniga noxolis yondoshuvga shubha tug'diruvchi xizmatlarni kursatmasligi kerak,

r) e'tirozlar, apellyasiya va kelishmovchiliklarni kurib chiqish va qaror qabul qilish buyicha siyosat va protseduralarga ega bulishi kerak.

Jarayonga talablar

SI mahsulotni belgilangan standartlarga muvofiqliгинi baxolash uchun barcha choralarni kurishi kerak.

SI ma'lum mahsulotga nisbatan standartlar yoki ularni qismlarini va boshqa, masalan, namunalarni tanlash, sinovlarni utkazish buyicha talablarni belgilashi kerak.

Sertifikatlashtirish buyicha ishlarni olib borishda SI sinovlar, nazorat qilish va sertifikatlashtirishga tegishli talablarga rioya qilishi kerak.

Subpudrat buyicha ishlar

Agar SI sertifikatlashtirish buyicha ishlarga subpudrat shartnomasi tuzmoqchi bulsa, shartnoma konfidensiallikni ta'minlash va manfaatlar nizosi shartlarini uz ichiga olishi kerak.

SI:

- subpudrat ish uchun tuliq javobgarlikni uz zimmasiga olishi;
- subpudratchilar layoqatli ekanligini, O'z DSt 16.10 va boshqa tegishli hujjatlar talablariga javob berishini, bevosita yoki bilvosita mahsulot ishlab chiqarish yoki ishlab chiqish bilan shug'ullanmasliklarini kafolatlashi;
- talabgorni roziligini olishi kerak.

**Amaliy mashg'ulot №4 Sertifikatlashtirish idorasi sifat tizimiga talablar**  
**Sifat tizimi. Ichki audit va rahbariyat tomonidan tahlil. Xujjatlar va yozuvlarga talablar. Konfidensiallik**

SI sifat uchun ma'muriy javobgarlik yuklatilgan rahbariyati sifat sohasidagi siyosat, maqsadlar va majburiyatlarni aniqlashi va xujjatlashtirishi kerak.

Rahbariyat sifat sohasidagi siyosatni xodimlarga etkazilishi, joriy qilinishi va tashkilotni barcha pog'onalarida bajarilishini ta'minlashi kerak.

SI O'z DSt 16.10 talablariga muvofiq bulgan va bajarilayotgan ish turlari, diapazoni va xajmiga javob beruvchi samarali sifat tizimini ishlab chiqishi kerak.

Bu tizim xujjatlashtirilishi va SI xodimlari uchun tushunarli bulishi kerak.

SI xujjatlashtirilgan sifat tizimi, protsedura va yuriqnomalarni samarali joriy qilinishini ta'minlashi kerak.

SI:

- O'z DSt 16.10 talablariga muvofiq sifat tizimi ishlab chiqilganligi, joriy qiliganligi va ishchi holatda ushlanishini kafolatlash uchun;
- sifat tizimini faoliyat olib borishi tug'risida xisobotlarni SI rahbariyatiga, tahlil qilish va sifat tizimini takomillashtirish uchun asos sifatida taqdim qilish uchun ma'lum vakolatlarga ega bulgan shaxsni tayinlashi kerak.

Sifat tizimi hujjatli rasmiylashtirilishi kerak.

Xujjatlar Sifat buicha qullanma va u bilan bog'liq protseduralar kurinishida rasmiylashtiriladi.



Sifat buyicha qullanma quyidagilarni uz ichiga olishi yoki ularga havolalarga ega bulishi kerak:

a) sifat sohasidagi siyosat;

b) SI huquqiy maqomini qisqacha bayoni, uni egalarini yoki uni nazorat qiluvchi shaxslarni familiyalarini;

v) sertifikatlashtirish bilan mashg'ul, shtatdagi va jalb qilinadigan xodimlarni familiyasi, malakasi, ish tajribasi va vakolatlarini;

g) vakolatlar sohasi, javobgarlik va rahbarlardan boshlab oddiy xodimlarni vazifalarini taqsimlanishini namoyish qiluvchi tashkiliy tuzilmani;

d) rahbariyat tomonidan tahlil utkazish protsedurasini

e) hujjatlarni boshqarishni uz ichiga olgan holda boshqaruv protseduralarini;

j) har bir shaxsni majburiyatlari xajmi va chegaralari barcha manfaatli tomonlarga ma'lum bulishi uchun, sifatga taalluqli vazifa va ishlarni bosqichma – bosqich va funksional majburiyatlari;

z) xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish va tayyorlash va ularni faoliyatini nazorat qilish protseduralari;

i) tasdiqlangan subpudratchilar ruyxati va ularni baholash, ruyxatga olish va layoqatligini nazorat qilish protseduralari;

k) nomuvofiqliklarni bartaraf qilish va tug'rilovchi va oldini oluvchi xarakatlar samaradorligini baholash protseduralari;

l) mahsulotni baholash va sertifikatlashtirish jarayonini bajarish uslublari, jumladan:

1) sertifikatsiya buyicha hujjatlarni berish, faoliyatini tasdiqlash, tuxtatib quyish va bekor qilish shartlari;

2) mahsulotni sertifikatlashtirishda ishlatiladigan hujjatlarni qullanilishi ustidan nazorat.

m) apellyasiya, shikoyat va kelishmovchiliklarni kurib chiqish protseduralarini

n) O'z DSt ISO/IEC 19011 talablari buicha ichki auditlarni utkazish protseduralari.

## **Amaliy mashg'ulot №5 Sertifikatlashtirish idorasi hujjatlari, xodimlari va ish jarayoniga talablar**

**Sertifikatlarni berish, amal qilishini tasdiqlash, tuxtatish va bekor qilish shartlari va jarayonlari. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlari. Sertifikatlashtirish buyicha talablardagi uzgarishlar. Apellyasiya, shikoyatlar va kelishmovchiliklar. ta'minotchilarga e'tirozlar**

### **Sertifikat berish, amal qilishini tasdiqlash, tuxtatib quyish va bekor qilish sharoitlari va protseduralari**

SI sertifikatni berish, amal qilishini tasdiqlash, shuningdek sertifikatni amal qilishi qisman yoki tuliq tuxtatilishi yoki bekor qilinishi mumkin bulgan shartlarni belgilashi kerak.

SI:

- sertifikatni berish, amal qilishini tasdiqlash, bekor qilish, va zarur bulsa sertifikatni amal qilishi tuxtatish;
- sertifikatni qullanish sohasini kengaytirish yoki qisqartirish;
- mahsulot konstruksiyasi (tarkibi) ga ta'sir kursatuvchi uzgarishlar, mahsulot muvofiqligi sertifikatlashtirilgan me'yoriy hujjatlar uzgarishi, yoki ta'minotchini mulkiy shakli, tarkibi yoki rahbariyati uzgarganda, yoki mahsulot sertifikatlashtirish tizimi talablariga muvofiq bula olmasligi tug'risidagi istalغان ma'lumot kelib tushganda qayta baholashni utkazish buyicha protseduralarga ega bulishi kerak

### **Sertifikatlashtirish idorasi xodimlari**

#### **Umumiy talablar**

SI xodimlari uz funksiyalarini bajarishda, jumladan zarur texnikaviy baholashlar, siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirishni qushgan holda, layoqatli bulishi kerak.

Xodimlar, ularni huquqlari va majburiyatlarini aniq xujjatlashtiruvchi yuriqnomalarga ega bulishi kerak. Bu yuriqnomalar doimo yangilanib turishi kerak.

#### **Malakasiga talablar**

Sertifikatlashtirishni samarali va bir tarzda utkazilishini ta'minlash uchun SI xodimlarni layoqatligiga minimal talablarni belgilashi kerak.

SI, sertifikatlashtirish buyicha ishlarda mashg'ul xodimlar uziga quyidagi majburiyatlarni olgan holda kontrakt yoki boshqa hujjatni imzolashini talab qilishi kerak:

- SI tomonidan belgilangan, jumladan konfidensiallik va tijorat va boshqa manfaatlardan mustaqillikni ta'minlovchi qoidalarga muvofiq bulish;
- u baholash yoki sertifikatlashtirish uchun tayinlangan mahsulot ta'minotchisi yoki ishlab chiquvchisi bilan uzini yoki uz ish beruvchisini oldingi va/xozirgi aloqalari tug'risida xabar berish.

SI, kontrakt buyicha ishlayotgan istalgan xodim, xodimlarga O'z DSt 16.10 standartida belgilangan barcha talablarga muvofiqligini ta'minlashi va xujjatli ravishda tasdiqlashi kerak.

SI sertifikatlashtirish buyicha amaliyotda band xar bir xodimni malakasi va tajribasi tug'risidagi ma'lumotlarga ega bulishi kerak. Xodimlarni tayyorgarligi va tajribasi tug'risidagi xujjatlar oxirgi ma'lumotlar bilan tuldirilishi kerak, xususan:

- familiyasi va manzili;
- tashkilotga mansubligi va lavozimi;
- ma'lumoti buyicha malakasi va kasbiy maqomi;
- SI layoqatini har bir sohasida tajriba va tayyorgarligi;
- ma'lumotlarni oxirgi dolzarblikka tekshirilgan sanasi;
- faoliyatini baholash.

### **Sertifikatlashtirishda qo'yiladigan talablarni o'zgarishi**

SI, sertifikatlashtirda belgilangan talablarga kiritishni rejalashtirayotgan barcha uzgarishlar tug'risida xabar berishi kerak. Uzgarishni aniq shakli va kuchga kirish sanasi tug'risida yakuniy qaror qabul qilgungacha, SI barcha manfaatdor tomonlarni fikrini kurib chiqishi kerak. Talablar uzgarishi tug'risida qaror qabul qilingach va u nashr qilingach, har bir ta'minotchi uz hujjatlariga barcha zarur uzgarishlarni, SI tomonidan belgilangan muddatgacha kiritishini nazorat qilishi kerak.

### **Apellyasiyalar, shikoyatlar va kelishmovchiliklar**

SI ta'minotchilar va boshqa tomonlardan kelib tushayotgan apellyasiya, shikoyat va kelishmovchiliklarga nisbatan protseduralarni ishlab chiqishi kerak.

Har bir sertifikatlashtirish idorasi:

- apellyasiya, shikoyat va kelishmovchiliklarni va sertifikatlashtirishga taalluqli choralar kurulishini ruyxatga olishi kerak;
- tegishli choralar kurishi;
- kurulgan choralar va ularni natijalarini rasmiylashtirishi kerak.

### **Ta'minotchilarga e'tirozlar**

SI, sertifikatlashtirilgan mahsulot ta'minotchisidan:

- mahsulotni standartlar talablariga muvofiqligiga taalluqli bulgan, unga etib kelgan barcha e'tirozlarni ruyxatga olishi va SI talabiga binoan taqdim qilishini;

- bunday e'tirozlar va mahsulot yoki xizmatlarda aniqlangan nomuvofiqliklarga nisbatan tegishli choralar kurishini;
- qabul qilinayotgan choralarni xujjatlashtirishini talab qilishi kerak

**Amaliy mashg'ulot №6 Sifat menedjment tizimlari auditi va sertifikatsiyasini o'tkazuvchi idoralarga talablar (O'z DSt ISO/IEC 17021:2009)**

**SMT sertifikatlashtirish idoralari faoliyatini tamoyillari: xolislik, layoqatlilik, javobgarlik, oshkoralilik, konfidensiallik. Xuquqiy va shartnomaviy masalalar. Xolislikni ta'minlash. Majburiyatlar va moliyalashtirish. Tashkiliy tuzilmasi va yuqori rahbariyat. Ob'ektivlikni (xolislikni) ximoya qilish buyicha kengashlar**

O'z DSt ISO/IES 17021:2009 standarti barcha turlardagi (masalan, sifat menedjmenti tizimi yoki atrof – muhit menedjmenti tizimi) menedjment tizimlarini sertifikatlashtirish va auditini tamoyillari va layoqatligi, kelishilganligi va ob'ektivligi, shuningdek bu faoliyatni amalga oshiruvchi idoralarga talablarni uz ichiga oladi.

### **Tamoyillar**

#### **Umumiy qoidalar**

Ushbu tamoyillar O'z DSt ISO/IES 17021:2009 standartini keyingi real bajarilishida asos bulib xizmat qiladi. Ularni kuzda tutilmagan holatlarda kerak bulishi mumkin bulgan qarorlarni chiqarishda rahbariy qullanma sifatida qullash kerak. Tamoyillar talab bulib xisoblanmaydi.

Sertifikatlashtirishda manfaatdor tomonlarga quyidagilar kiradi:

- sertifikatlashtirish idoralari buyurtmachilari;
- menedjment tizimlari sertifikatlashtirilayotgan tashkilotlar buyurtmachilari;
- davlat boshqaruv idoralari;
- nodavlat tashkilotlari
- iste'molchilar va jamiyatni boshqa vakillari.

Ishonchga kumaklashuvchi tamoyillar:

- xolislik (ob'ektivlik);
- layoqatlik;
- javobgarlik;
- oshkoralik;
- konfidensiallik
- shikoyatlarga javob qaytarmoq.

## **Xolislik**

Ishonchga sazovor buluvchi sertifikatlashtirishni utkazish uchun sertifikatlashtirish idorasi xolis bulishi va xolis deb qabul qilinishi kerak.

Sertifikatlashtirish idorasini daromad manbai bulib, bu idora buyurtmachilari tomonidan sertifikatlashtirish xarajatlarini tulanishi xisoblanadi, bu esa xolislikni bulishi mumkin xavfi xisoblanadi.

Ishonchga erishish va ushlab turish uchun, sertifikatlashtirish idorasini qarorlari , u tomonidan muvofiqlik (yoki nomuvofiqlikni) ob'ektiv tasdiqlanishi asoslanishi va uni qarorlari boshqa manfaatlar yoki boshqa tomonlarga ta'sir kursatmasligi muhimdir.

Xolislikka xavflarga quyidagilar kiradi:

- shaxsiy manfaatdan iborat xavf: uz manfaatlari yulida faoliyat olib borayotgan alohida shaxs yoki idoradan kelib chiqayotgan xavflar.

- uz faoliyatini tahlili: inson yoki idora tomonidan uz ishini tahlil qilishda kelib chiqadigan xavf. Sertifikatlashtirish idorasi maslahat xizmatlari kursatgan buyurtmachini menedjment tizimini auditi bunday xavf bulishi mumkin.

- dustona munosabatlar (yoki ishonch) mavjudligidan kelib chiqadigan xavf: audit guvohliklari olish urniga uta yaqin dustona aloqalar mavjud yoki bir – biriga ishonuvchan alohida shaxs yoki idoradan kelib chiquvchi xavf.

- qurqitish bilan bog'liq xavf.

## **Layoqatlilik**

Sertifikatlashtirish idorasini sifat menedjmenti tizimi bilan ushlab turiladigan, xodimlarni layoqatliligi, ishonchga sazovor buluvchi sertifikatlashtirishni utkazish uchun zarur.

## **Javobgarlik**

Sertifikatsiyaga talablarga muvofiqlik uchun javobgarlik sertifikatlashtirish idorasi emas, balki buyurtmachi – tashkilotga yuklanadi.

Sertifikatlashtirish idorasi, sertifikatlashtirish buyicha qaror qabul qilinadigan ob'ektiv guvohliklarni asoslangan baholanishi uchun javobgarlikni uz zimmasiga oladi.

## **Oshkoralilik**

Sertifikatlashtirish idorasi audit jarayoni va sertifikatlashtirish jarayoni , sertifikatlashtirish maqomi (ya'ni xolislikka amin bulish va sertifikatlashtirishga ishonchga erishish uchun biron – bir tashkilotni sertifikatlashtirishni qullash sohasini taqdim qilish, kengaytirish, yangilash, tuxtatib quyish, qisqartirish yoki bekor qilish ) tug'risidagi tegishli va dolzarb ma'lumotlarni keng jamoatchilikka taqdim qilishi kerak.

## **Konfidensiallik**

Talablarga muvofiqlikni adekvat baholash uchun sertifikatlashtirish idorasiga talab qilinadigan ma'lumotlardan foydalanishda, sertifikatlashtirish idorasi buyurtmachi tug'risidagi ma'lumotlarni konfidensialligini saqlashi kerak.

## **SHikoyatlarga javob berish**

SHikoyatlarga samarali javob berish sertifikatlashtirish idorasi, uni buyurtmachilari va sertifikatlashtirishdan boshqa foydalanuvchilarni xatolar, kamchiliklar yoki notug'ri xatti – xarakatdan ximoyalashni muhim vositasi xisoblanadi.

## **Huquqiy va shartnomaviy masalalar**

Sertifikatlashtirish buyicha idora, buyurtmachiga sertifikatlashtirish buyicha xizmatlarni kursatish tug'risida yuridik kuchga ega bulgan shartnoma tuzishi kerak. SI, sertifikatlashtirishni taqdim qilish, ishchi holatda tutish, yangilash, kengaytirish, tuxtatib quyish va bekor qilishni qushgan holda, sertifikatlashtirish sohasidagi qarorlari uchun javobgar bulishi (va uz vakolatlarini saqlashi) kerak.

- SI boshqa SI menedjment tizimini sertifikatlashtirishi kerak emas.
- SI yoki shu yuridik shaxsni istalgan bir qismi menedjment tizimiga nisbatan maslahat xizmatlari kursatmasligi kerak.
- SI yoki shu yuridik shaxsni istalgan bir qismi, uzlari tomonidan sertifikatlashtirilgan buyurtmachilarida ichki auditlarni utkazmasligi yoki utkazishni taklif qilmasligi kerak.
  
- SI, u tomonidan ichki auditlar utkazilgan menedjment tizimlarini, ichki auditlar utkazilgandan sung ikki yil utmagungacha sertifikatlashtirmasligi kerak.
- SI, tashqi tomonlarni jalb qilgan holda maslahat xizmatlari kursatuvchi tashkilotlarni auditlarini utkazmasligi kerak.

## **Tashkiliy tuzilmasiga talablar**

SI, rahbariyat va sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi xodimlar, shuningdek Kengashlarni majburiyatlari, javobgarligi va vakolatlarini kursatgan holda uz tashkiliy tuzilmasini hujjatlashtirishi kerak.

Agar SI yuridik shaxsni ma'lum bir qismi bulsa, tashkiliy tuzilma bu yuridik shaxsni boshqa qismlari bilan uzaro aloqa va vakolatlar taqsimlanishini aks ettirishi kerak.

SI quyidagilar uchun tuliq vakolatlar va javobgarlikka ega yuqori rahbariyat (boshqaruv) ni belgilashi kerak:

- idorani faoliyat olib borishiga nisbatan siyosatni ishlab chiqish;
- siyosat va protseduralarni amalga oshirilishi ustidan nazorat;

- idora moliyasi ustidan nazorat;
- xizmatlar va menedjment tizimlarini sertifikatlashtirish sxemalarini ishlab chiqish;
- auditlar va sertifikatlashtirishni utkazish va shikoyatlarga javob berish;
- sertifikatsiya buyicha qaror qabul qilish;
- SI nomidan ma'lum faoliyatni amalga oshirish uchun vakolatlarni kengashlar yoki alohida shaxslarga berish;
- sharnoma kelishuvlari;
- sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyat uchun tegishli resurslarni ta'minlash.

### **Resurslarga talablar**

SI uz tuzilmasida audit dasturi turi va sohasini boshqarish uchun etarli layoqatlikka ega xodimlarga ega bulishi kerak.

SI uz faoliyatini tuliq qamrash va utkazilayotgan auditorlik ishini tuliq bajarish uchun kerakli miqdordagi auditorlarni jalb qilishi yoki ularga ega bulishi kerak.

SI auditorlar va texnikaviy ekspertlarni tanlash, tayyorlash, vakolatlar berish buyicha tegishli jarayonlarga ega bulishi kerak.

SI, auditorlar (va zarur bulganda texnikaviy ekspertlar) audit jarayonlarini, sertifikatlashtirish talablari va boshqa tegishli talablarni yaxshi bilishini ta'minlashi kerak.

SI, audit utkazish va sertifikatlashtirish buyicha faoliyatga taalluqli ma'lumotlar bulgan protseduralarga yul ochishi kerak.

SI, audit va sertifikatlashtirish buyicha faoliyatga jalb qilingan barcha xodimlarni qoniqarli ishini ta'minlashi, ularni ishini monitoringi mezonlari va hujjatlashtirilgan protseduralari bulishi kerak.

SI, tashqi auditorlar va texnikaviy ekspertlar idora tomonidan belgilangan, amaldagi siyosat va protseduralarga rioya qilish tug'risida yozma kelishuvni imzolashlari kerak. Kelishuvda konfidensiallik va xolislikka tegishli aspektlar ham kuzda tutilishi kerak.

Bu talab tashki tashkilotlarni jalb kilishga xam taalluklidir.

SI:

a) jalb qilingan tashqi tashkilotni barcha faoliyati uchun javobgarlikni uz zimmasiga olishi;

b) tashqi tashkilotlar va jalb qilinayotgan alohida xodimlar SI talablariga, shuningdek layoqatlilik, xolislik va konfidensialilikni qushgan holda O'z DSt ISO/IES 17021:2009 standartini qoidalariga javob berishini kafolatlashi;

c) subpudratchi tashkilot va jalb qilinayotgan alohida shaxslar, bevosita yoki bilvosita audit utkazilayotgan tashkilotga jalb qilinmaganligini kafolatlashi kerak.

### **Ma'lumotlarga talablar**

SI, audit va sertifikatlashtirishni taqdim qilish, ishchi holatda ushlab, yangilash, kengaytirish, qisqartirish, tuxtatib quyish yoki bekor qilish buyicha sertifikatlashtirish jarayonlarini bayon qiluvchi, menedjment tizimlari turlari va u ishlaydigan geografik hududlar tug'risidagi ma'lumotlarni ishchi holatda tutishi va ma'lum qilishi yoki talab buyicha takdim qilishi kerak.

Ba'zi xollarda ma'lum ma'lumotlar buyurtmachini iltimosiga kura cheklanishi mumkin.

### **Sertifikatlashtirish buyicha hujjatlar**

SI sertifikatlashtirilgan buyurtmachisiga sertifikatlashtirish buyicha hujjatlarni u tomonidan tanlangan vositalar orqali taqdim qilishi kerak.

Sertifikatlashtirish buyicha hujjatni joriy qilinish sanasi sertifikatlashtirish buyicha qaror qabul qilinish sanasidan oldin bulmasligi kerak.

Sertifikatlashtirish buyicha hujjatda quyidagilar kursatilishi kerak:

- a) menedjment tizimi sertifikatlashtirilgan buyurtmachini nomi va geografik joylashuvi;
- b) sertifikat berilgan, qullash sohasi kengaytirilgan yoki yangilangan sanasi;
- v) sertifikatni amal qilish muddati yoki resertifikatsiya utkazish sanasi;
- g) individual identifikatsion nomer;
- d) sertifikatlashtirilgan buyurtmachi auditi davomida qullanilgan standart va/yoki boshqa me'yoriy hujjat;
- e) mahsulot (xizmat), jarayonga nisbatan sertifikatlashtirish sohasi;
- j) SI nomi, manzili va belgisi; boshqa belgilar (masalan, akkreditatsiya belgisi) chalkashlik yoki noaniq tushinilishga yul quyilmaydigan holda ishlatilishi mumkin;
- z) sertifikatlashtirishda qullanilgan standart va/yoki boshqa me'yoriy hujjatda kuzda tutilgan boshqa istalgan ma'lumot;

Sertifikatlashtirilgan tashkilotlar reestri

SI sertifikatlashtirilgan tashkilotlar reestri olib borishi va qiziqish bildirgan tomonlarga tanishi imkoniyatini yaratishi kerak.

### **Sertifikatsiyaga havola va belgilarni qullash**

SI sertifikatlashtirilgan buyurtmachiga qullash uchun ruxsat bergan belgilarni boshqarish buyicha siyosatga ega bulishi kerak.



**Amaliy mashg'ulot №7 SMT sertifikatlashtirish jarayoniga talablar  
Umumiy qoidalar. Boshlang'ich audit va sertifikatlashtirish. Nazorat buyicha  
faoliyat. Qayta sertifikatlashtirish. Maxsus auditorlar. Sertifikatlashtirishni  
faoliyat sohasini tuxtatib quyish, bekor qilish yoki qisqartirish. Apellyasiyalar.  
SHikoyatlar. Talabgorlar va mijozlar buyicha yozuvlar**

■ Audit dasturi ikki bosqichdan iborat boshlang'ich audit, birinchi va ikkinchi yil davomidagi nazorat auditlari va qayta sertifikatlashtirish auditidan iborat bulishi kerak.

■ Sertifikatlashtirishni uch yillikssikli sertifikatlashtirish yoki qayta sertifikatlashtirish tug'risidagi qarordan boshlanadi. Audit dasturini va istalgan tug'rilashlarni aniqlashda buyurtmachi tashkilotini ulchami, qullanish sohasi va uning menedjment tizimi, jarayonlari va mahsulotini murakkabligini, shuningdek oldingi auditlar natijalarini kurib chiqish kerak. SI talabgorida utkazilgan sertifikatlashtirish yoki boshqa auditlarni e'tiborga olgan taqdirda, SI audit dasturini istalgan ulchashlarini asoslash va yozib olish uchun etarli, tekshiriladigan ma'lumotlarni yig'ishi kerak.

SI, auditorlik faoliyatini utkazish va muddatlarini aniqlash uchun har bir audit uchun audit plani tuzilishini ta'minlashi kerak. Audit rejasi O'zDSt ISO 19011 ga binoan ishlab chiqilgan, SI hujjatlashtirilgan talablariga asoslanishi kerak.

SI, audit buyicha guruh rahbarini qushgan holda, audit buyicha guruhni tanlash va tayinlash jarayoniga ega bulishi kerak. Bu jarayon O'z DSt ISO 19011 da belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgan, hujjatlashtirilgan talablarga asoslanishi kerak.

SI audit vaqtini aniqlash uchun hujjatlashtirilgan protseduralarga ega bulishi kerak, xar bir buyurtmachi uchun menedjment tizimini tuliq va samarali rejalashtirish va tugallash uchun zarur vaqtni aniqlashi kerak.

SI tomonidan aniqlangan audit vaqti va aniqlash uchun asos yozilishi kerak.

Audit muddatlarini aniqlashda SI quyidagi aspektlarni kurib chiqishi kerak:

- menedjment tizimiga tegishli standartni talablarini;
- ulcham va murakkablilik;
- texnologik uziga xos xususiyatlar;
- menedjment tizimi bilan qamrab olingan istalgan faoliyat uchun hamijrochilarni (outsorsing) jalb qilish;
- oldingi audit natijalarini;

- ishlab chiqarish maydonchalarini soni va ularda auditni utkazish bilan bog‘liq masalalarni.

Agar audit davomida turli joylarda joylashgan va uxshash faoliyatni amalga oshiradigan ishlab chiqarish maydonchalari tanlama tekshirilsa, SI tanlashni amalga oshirish uchun dastur ishlab chiqishi kerak. Tanlashni asoslanishi yozib quyilishi kerak.

Audit buyicha guruhga belgilangan vazifalar aniqlanishi va buyurtmachi – tashkilot xabardor qilinishi, auditorlar guruhidan quyidagilarni talab qilishi kerak:

- buyurtmachi – tashkilotni menedjment tizimiga tegishli bulgan tashkiliy tuzilma, siyosat, jarayonlar, protseduralar va ular bilan bog‘liq hujjatlarni inspeksiya qilish va verifikatsiyalash;
- kuzda tutilgan sertifikatlashtirish sohasini barcha talablarini muvofiqligini aniqlash;
- barcha jarayon va protseduradar belgilanganligi, samarali bajarilayotganligi va ishchi holatda tutilishi, menedjment tizimiga ishonch uchun asosta‘minlashiga ishonch hosil qilish;

SI buyurtmachi – tashkilotga auditorlar guruhi a‘zolarini familiyalarini uz vaqtida xabardor qilishi kerak.

Audit rejasi va vaqti buyurtmachi – tashkilotga olddindan xabar qilinishi va kelishilishi kerak.

SI har bir audit buyicha yozma hisobot tayyorlashi kerak . Xisobot O‘z DSt ISO 19011 buyicha tuzilishi kerak.

- Audit buyicha guruh yaxshilash imkoniyatlarini belgilashi kerak, ammo aniq qarorlarni tavsiya qilmasligi kerak.
- SI mijozdan sabablar tahlili va joriy qilingan yoki joriy qilinishi rejalashtirilayotgan maxsus tug‘rilash va tug‘rilovchi harakatlarni bayonini talab qilishi kerak.
- SI mijoz tomonidan amalga oshirilgan tug‘rilash va tug‘rilovchi harakatlarni ularni yaroqliligiga tahlil qilishi kerak.

Sertifikatlashtirishni boshlang‘ich auditi ikki bosqichda utkaziladi: birinchi bosqich va ikkinchi bosqich.

Auditni birinchi bosqichi:

- a) buyurtmachini menedjment tizimi hujjatlarini auditorlik tekshiruvini;
- b) buyurtmachini joylashish sharoitini va ishlab chiqarish maydonchalarini joylashishini baholash, buyurtmachi xodimlari bilan auditni ikkinchi bosqichiga tayyorgarlikni muhokama qilish;

- v) buyurtmachi tomonidan standartni talablarini tushinilishini, jumladan asosiy faoliyatni yoki muhim aspektlar, jarayonlar, maqsadlar va menedjment tizimini faoliyatini identifikatsiyalashini;
- g) menedjment tizimi, jarayonlariga taalluqli zarur ma'lumotlarni yig'ish;
- d) ikkinchi bosqich uchun resurslar ajratilganligi va buyurtmachi bilan ikkinchi bosqich detallarini kelishish uchun utkaziladi.

#### Auditni ikkinchi bosqichi

Auditni ikkinchi bosqichini utkazishdan maqsad – menedjment tizimini faoliyatini, jumladan natijaviyligini baholashdan iborat.

#### Ikkinchi bosqichda:

- menedjment tizimiga standart yoki boshqa me'yoriy hujjatni barcha talablariga muvofiqlik ;
- monitoring, ulchashlar, hisobotlarni tuzilishi tahlilini utkazilishi;
- buyurtmachi menedjment tizimi va faoliyatini qonunchilik talablariga muvofiqligi;
- buyurtmachi jarayonlarini operativ nazorati;
- ichki auditlar va rahbariyat tomonidan tahlil utkazilishi;
